

YUSUF XOS HOJIB ASARLARIDA ILM-MA'RIFAT VA MA'NAVIYAT MASALALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15648359>

Karimova Nilufar Raimjonovna

University of business and science

Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilk o`rta asrlar Sharq allomalaridan biri hisoblangan Yusuf Xos Hojibning ijodi va asari haqida so`z yuritildi, uning asari davrning gultoji bo`lib qolganligi, hatto o`z davrida qo`shiq qilib aytilganligi, hozirda ham u o`z ahamiyatini yo`qotmaganligi ta`kidlanadi.

**Kalit so`zlar:** turkiy adabiyot, adib, tarix, alloma, she`riyat, hamd, na`t, muqaddima.

Аннотация: В данной статье речь ведется о творчестве и произведении знаменитого поэта средневекового Востока Юсуфа Хос Ходжиба, его произведение стало огромным достижением своего времени, даже в свое бахчи пели отрывки из этого произведения, в данное время также его произведение активно изучается.

Ключевые слова: тюркская литература, писатель, история, ученый, стихотворение, восхваление, введение.

Annotation: The given article touches upon the creative work of the famous medieval poet of the East Usuf Khas Khadjib, whose scientific work became a great achievement of his time, and is still being learned by young generation.

Key Words: Turkic literature, writer, historical, literary, scholar, poem, praise, introduction.

O`zbekiston qadimdan ilmu ma`rifat markazi, madaniyat o`chog`i bo`lib kelgan. Shu bois, yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy-ma`naviy merosi bugungi kunda ham o`z ahamiyatini yo`qotmagan. O`rta asrlarda yashab ijod qilgan Sharq allomalari va mutafakkirlarining ilmiy-ma`naviy merosi, jahon ilm-fani, sivilizatsiya rivojiga qo`shgan bebaho hissasi dunyo olimlari hamda jahon hamjamiyati tomonidan hamisha yuksak e`tirof etiladi.

Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Yusuf Xos Hojib kabi yuzlab allomalimizni nafaqat biz faxr bilan tilga olamiz, balki xalqaro jamoatchilik, xususan, jahon ilm-fan doiralari vakillari ham yuksak qadrlaydi. Bugun biz ana shunday buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo`lishni maqsad qilganmiz. Shu ma`noda, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan O`zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari taraqqiyotning yangi bosqichiga intilayotgan xalqimizning ma`naviy-ma`rifiy

barkamolligini namoyon qilishi bilan bir qatorda, Uchinchi Renessans davri poydevori vazifasini bajaruvchi ilm-ma'rifat maskanlari bo'lishi, shubhasiz.

Qayd etish kerakki, ajdodlarimiz tarixdagi har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, ilmiy salohiyati yuqori xalqlari qatoridan joy egallagan. Ular ilm yo'lida umrini sarflab, o'sha davrda mavjud barcha fanlar bo'yicha yetuk olimlar bo'lib yetishgan. Shuning uchun ham mamlakatimizdan yetishib chiqqan allomalarning hayoti va boy ilmiy-ma'naviy merosiga qiziqish hamisha xalqaro jamoatchilik, xususan, dunyo olimlarining doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan.

Xususan, Yusuf Xos Xojib ilk o'rta asrlar davri adabiyotining mashhur alloma vakillaridan biri hisoblanadi. Adibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy tildagi dastlabki asar bo'lganligi uchun xalq orasida mashhur bo'lib ketgan. «Bu asardan ba'zi parchalar baxshilar tomonidan qo'shiq qilib aytilganligi haqida ham ma'lumotlar bor»[3.B.37], shuning uchun ushbu asarga batafsilroq to'xtalish lozim topildi. Adibning hayoti va faoliyati haqida hech bir tarixiy yoki adabiy manbalarda ma'lumotlar uchragan emas. Uning yuqorida ko'rsatilgan asaridan ma'lum bo'lishicha, adib taxminan 1019 yillar atrofida «Kuz-urdu», ya'ni Bolosog'unda tavallud topadi (asarni 462 (1069) yil yozib tugatganligi, bu vaqt 50 yoshda ekanligi qayd etilgan). Adibdan bizgacha yagona «Kutadg'u bilig» asari yetib kelgan: Yil altmish eki erdi, turt yuz bila, Bu so'zi so'zladim man tutub jan sura Tugal o'n sakkiz ayda aydim bu so'z, O'durdum, adirdim, so'z evdim tera. »[2]

Bundan ko'rinib turibdiki, asar 18 oyda 462 yili yozib tugallangan. Asarda dastlab basmala (unvon), so'ngra esa nasriy muqaddima keladi. «Muqaddimada hamd, na'tdan keyin asarning qimmat, nomlanishi, xonga tortiq qilinishi, taqdirlanishi hamda asardagi 4 ramziy qahramon o'rtasidagi savol-javoblar bo'lib o'tishi» haqida aytiladi [5.B. 112]. So'ng yana 77 baytdan iborat she'riy muqaddima keltiriladi. Bundan keyin esa tilning foyda-zarari, bilimning manfaati va hokazolari haqida fikrlar bayon etiladi. Shundan so'ng asosiy voqealar bayoniga o'tiladi. Muqaddimada:

Ko'z-urdu o'lkasi aslida eli
Tub asli nasabdan so'z ochdi tili.
Tug'ilgan elidin chiqib borgani
Kitobni jam etib tugal qilgani.
Barisin bitibdir yetkazib nizom,
Bu Qoshg'ar elinda qo'shilmish tamom.
(Barini bitibdir ne esa kalom,
Bu Qoshg'ar elinda tugadi, tamom).

Ushbu satrlardan adibning vatani Kuz-urdu (Bolosog'un) ekanligi ma'lum bo'ladi hamda adib asarini yaratish uchun yurtidan chiqib boshqa joylarga safar qilgani, ko'plab madaniy-adabiy manbalarni o'rgangani va Qoshg'arga kelib asarni yozib tugatganini anglash mumkin. «Qutadg'u bilig» turkiyda yaratilgan birinchi eng yirik adabiy asardir. Bu asarga qadar yaratilgan asarlarning barchasi arab va forsiyda yaratilgan. Asar tez orada shuhrat qozonib, Tabg'ach Bug'roxon tomonidan munosib takdirlandi» [4.B.52].

Asarning tarbiyaviy ahamiyati shurdaki, davlatni idora qilish qonun-qoidalarini, mulk tutishning siru-asrorlarini, ijtimoiy tabaqalar, ularning jamiyatdagi o'rnini, har bir tabaqaning axloqiy normalarini ko'rsatib, belgilab beruvchi, davr talabiga nihoyatda mos bir asar ekanini ko'rish mumkin. Adib asarda aytilgan keng qamrovli fikr-qarashlarini 4 narsada mujassam etib tasvirlaydi. Bular:

Biri to'g'rilikka tayanch adolat,
Biri davlat erur, u qutli g'oyat.
Uchinchi - ulug'lik aql va zako,
To'rtinchi - qanoat erur bebaho.

«Qutadg'u bilig» asarini hozirda uch qo'lyozma nusxasi mavjud. «Uyg'ur yozuvida ko'chirilgan bir nusxasi Venada, arab yozuvida ko'chirilgan bir nusxasi Qohirada va yana bir nusxasi Toshkentda saqlanadi» [4.B. 57]. «Qutadg'u bilig» 1971 yilda Qayum Karimov tomonidan hozirgi tilga o'girilib nashr etilgan.

Asarda Yusuf Xos Hojib yuqorida aytilgan 4 asosni bayon qilish yoxud ta'rif-tavsif etish yo'lidan bormaydi, balki ularni 4 inson qiyofasida tasvirlaydi va ularning har birini alohida nomlar bilan ataydi:

Adolat - Kuntug'di - shoh - quyosh. Davlat - Oyto'ldi - vazir - oyga.

AQL - O'gdulmish — vazir o'g'li — charog'onlik. Qanoat - O'zg'urmish - vazir qarindoshi - sergaklik.

Asosiy voqealar shu 4 obraz o'rtasidagi savol-javoblardan iborat bo'lib, bir qator eng asosiy masalalar ana shu jarayonda yoritib beriladi. Ana shu obrazlar o'rtasidagi munosabatlar mazmunining uyg'unligidan bosh masala, g'oya, asarning «Kutadg'u bilig» deb nomlangani sababi kelib chiqadi.

Barcha asarlarda bo'lgani singari «Qutadg'u bilig»da ham adibning munosabatlari, bir butun falsafiy qarashlari ziddiyatlarga to'la bir ko'rinishda butun asar davomida ko'zga tashlanadi.[3.B. 83] Adib o'z davrining kishisi sifatida islom dini qarashlari, islom axloqini yoqlaydi:

Yomon desa bo'lmas bu dunyo molin,
Esa, bersa xalqqa, yoritsa yuzin.
Xudoni toat birla topmas quli,
O'zing zo'rla keng dunyoni qilma tor,
Toatla unutmak zakovatni sen.

Yusuf Xos Hojib falsafasiga ko'ra, hayot, umr barcha ezguliklar uchun asosiy moyadir(onasidir), shuning uchun ham u juda aziz va qimmatli beqiyosdir. Amal, mansab, davlat, boylik inson umrini zoe, behuda kechishiga sabab bo'luvchi bebaqo va bevafo narsalardir.

Yusuf Xos Hojib o'z qarashlarida tasavvuf ta'limoti ilgari surgan fikr-qarashlar doirasidan anchayin uzoqlab ketolmaydi, ayni paytda barchasini ma'qullamaydi ham. Masalan: «Sufiylarda Xudo tabiatdan holi alohida holatda mavjud emas, ya'ni Olam Haq husni jamolining tajallisidan iborat. Olamdagi barcha narsalarda Haqdan nishon bor,» [3.B. 51] deyiladi. Adibning qarashlarida dunyoga ma'naviy munosabat ustun darajada ko'rinadi. Qizig'i shundaki, adib

olamda yuz berayotgan voqea-hodisalar, qarashlar, o'z davrida mavjud o'zgarishlarning hech birini tamoman inkor etmaydi, ayni paytda ulardan birini ajratib olib, yoqlab ham chiqmaydi. Go'yoki nimalar sodir bo'layotgan bo'lsa, shunday bo'lishi kerakdek tuyuladi.

Asardan adib qarashlarini umumlashtirib oladigan bo'lsak, adib barcha munosabatlarning asosiy mezonini ilm-ma'rifat deb olganini guvohi bo'lamiz. Eng avvalo insonning insonligi, podshohning adolati, raiyatning osoyishtaligi, mulkning farovonligi barcha-barchasi ilm tufaylidir:

Yana bir hikmat bor:

...Hazrati odam,
...Bilim, aqlu idrok sabab muhtaram.
...Bilim bilan kishi judo hayvondin,
...Buyukroq nima bor, qani ayt andin.
...Bilimni buyuk bil uquvni ulug`,
...Shu ikkov ulug`lar kishini to`liq.

...Uquv qayda bo'lsa, ulug`lik bo'lar,
...Bilim kimda bo'lsa, buyuklik bo'lar.
...Bolam tutsin desang donolik yo`lin,
...Kichiklikdan tegiz bilimga ko`lin.

Asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar yuksak darajada ifoda topadi. «Qutadg`u bilig»ni aql va hikmat darsligi deb ham atashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Yusuf Xos Xojib. Qutadg`u bilig. /Q.Karimov tabdili. - T.: Fan, 1972.
2. Yusuf Xos Xojib. Qutadg`u bilig. /prof. B.To`xliev tabdili. - T.: CHulpon, 1990.
3. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – T.: Fan, 1972.
4. To`xliev B. Yusuf Xos Xojib va uning «Qutadg`u bilig» dostoni. – T.: Fan, 1993.
5. Mamatqulov M. Qadimgi tupkiy adabiyotda to`rtlik va marsiya. – T.: Fan, 2006.